



QURILISH KIMYOVIY MAHSULOTLARI GURUHI

BETEK BETEKSTOP®

MAHSULOT TAVSIFI

BETEKSTOP® — bu sement asosidagi, bir komponentli, kristallanuvchi gidroizolyatsion qorishma bo'lib, kapillyar ta'sirga ega va ijobiy hamda salbiy tomondan qo'llanishi mumkin. Tarkibida polimer qo'shimchalari, maxsus turdagi sement va to'ldiruvchilar mavjud bo'lib, bo'yoqning shishishi va suvoqning ko'chib tushishi kabi muammolarni bartaraf etish uchun mo'ljallangan.

QO'LLANILISH SOHALARI

Ichki va tashqi gorizontal hamda vertical yuzalarda poydevorlar, devor pardalari va tayanch devorlarni, shuningdek mavjud binolarning yerto'la devorlarini gidroizolyatsiya qilishda qo'llaniladi. Balkonlar, hammomlar va hojatxonalar kabi nam joylarda keramika qoplamasidan oldingi gidroizolyatsiyada ishlatiladi.

Dengiz bo'yidagi beton binolarni suvning abraziv va korroziy ta'siridan himoya qilishda, shamol ta'sirida yomg'ir suvining kirib kelishiga qarshi qo'llaniladi.

Yomg'ir kollektorlarida, lotoklarda, tunnellarda, boshpanalarda, avtoturargohlarda va lift shaxtalarida gidroizolyatsiya maqsadida ishlatiladi.

Suvni saqlovchi beton inshootlar, jumladan suv baklari, basseynlar va sisternalarda qo'llaniladi.

XUSUSIYATLARI

- Faqat suv bilan aralashtirib tayyorlanadi. Cho'tka yoki shpatel bilan oson surtiladi.
- Gorizontal va vertikal yuzalarda ijobiy va salbiy tomondan ishonchli gidroizolyatsiya ta'minlaydi.
- Barcha sement asosli qoplamalar hamda eski va yangi ochiq beton yuzalarda ishonchli qo'llaniladi.
- Suv o'tkazmaydigan, abraziv va korroziy bo'lmagan mustahkam izolyatsiya hosil qiladi va yuzadan ajralib ketmaydi.
- Mexanik va kimyoviy ta'sirlarga chidamli. Beton va armaturani suvning yemiruvchi ta'siridan himoya qiladi.

TEXNIK KO'RSATKICHLAR

- Rang: kulrang
- Quruq aralashma zichligi: $1,4 \pm 0,1 \text{ g/sm}^3$
- Yangi qorishma zichligi: $1,5 \pm 0,1 \text{ g/sm}^3$
- Bosimli suvga chidamliligi: $\geq 1,5 \text{ bar}$ (ijobiy tomondan)
- Yopishish mustahkamligi: $\geq 1 \text{ N/mm}^2$ (28 kun)
- Suv shimilishi: $\leq 0,2 \text{ kg/m}^2 \cdot \text{soat}^{1/2}$
- Siqilish mustahkamligi: $\geq 15 \text{ N/mm}^2$
- Egilish mustahkamligi: $\geq 5 \text{ N/mm}^2$
- Ishlash vaqti: 1 soat (+20°C da)



OOO "COLORLAB"
Toshkent shahri, Olmazor tumani, Miskin MFY, Chilto'g'on ko'chasi, 24/3-uy

Tel: +998 99 866-89-88,

+998 77 119-89-88



- Qatlamlar orasidagi kutish vaqti: 5 soat
- To'liq qurish vaqti: 24 soat

QO'LLASH USULI

Yuzani mahsulotning yopishishiga xalaqit beruvchi chang, kir va boshqa moddalardan tozalang. Zarurat bo'lsa, bosimli suv va iliq sovunli suvdan foydalaning.

Yangi suvoq yoki beton yuzaga qo'llang. Bo'yoq va boshqa qoplamalar mexanik usulda olib tashlanib, ochiq beton holatiga keltirilishi lozim.

Yuza nam-quruq va toza bo'lishi kerak. Suv yig'ilib qolmasligi uchun kamida 5% qiyalik ta'minlanishi zarur.

Qo'llashdan oldin yuzani Betek Stako va/yoki Betek Stako 0 ta'mirlash qorishmalari bilan tekislang. Vertikal va gorizontal sovuq choklar ochilib, Stako ta'mirlash qorishmasi bilan yumaloqlanadi.

Yuza tayyorlangach, namlantiriladi.

Cho'tka bilan qo'llash uchun 25 kg BETEKSTOP® ni 6–6,5 l toza suv bilan aralashtiring.

Shpatel bilan qo'llash uchun 25 kg BETEKSTOP® ni 5–5,5 l toza suv bilan aralashtiring.

Aralashmani past tezlikli mikserda (400–600 ayl/min) havo pufakchalari yo'qolguncha aralashtiring.

2 qatlamda qo'llang.

OGOHLANTIRISHLAR

- +5°C dan +30°C gacha bo'lgan haroratda qo'llang.
- Qo'llashdan kamida 24 soat oldin va keyin yuzani yomg'ir, sovuq, to'g'ridan-to'g'ri quyosh nuri hamda piyoda va transport harakatidan himoyalang.
- Quyosh nuri tushishi mumkin bo'lgan joylarni yopib qo'ying.
- Ishdan so'ng asboblarni suv bilan yuving.
- Ish paytida qo'lqop kiying.
- Ko'zga yoki teriga tegsa, darhol ko'p miqdorda suv bilan yuving.
- Allergik holat yuzaga kelsa, zudlik bilan shifokorga murojaat qiling.

SARF

O'rtacha 3 kg/m² (2 qatlamda).

Ko'rsatilgan qiymatlar taxminiy bo'lib, aniq sarf yuzaning g'ovakligi va holatiga qarab sinovdan so'ng aniqlanadi.

SAQLASH SHAROITLARI

Ochmagan holda, quruq va salqin joyda, namlik, sovuq va to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlaridan himoyalangan holda 6 oygacha saqlanadi.

XAVFLILIK

Tirnash xususiyati beruvchi (Xi)



OOO "COLORLAB"
Toshkent shahri, Olmazor tumani, Miskin MFY, Chilto'g'on ko'chasi, 24/3-uy

Tel: +998 99 866-89-88,

+998 77 119-89-88



Xavfli bayonotlar:

- H315 Teri tinashini keltirib chiqaradi.
- H318 Ko'zga jiddiy zarar yetkazadi.
- H335 Nafas yo'llarini tinashi mumkin.

Ehtiyot choralar:

- P101 Tibbiy yordam kerak bo'lsa, mahsulot idishi yoki yorlig'ini yoningizda saqlang.
- P102 Bolalar ololmaydigan joyda saqlang.
- P103 Ishlatishdan oldin yorliqni o'qing.
- P261 Chang, tutun, gaz, tuman, bug' va aerezollarni nafasga olmang.
- P305+P351+P338 Ko'zga tushsa, bir necha daqiqa ehtiyotkorlik bilan suv bilan yuving, kontakt linzalarni olib tashlang va yuvishni davom ettiring.
- P310 Darhol zaharlanish markaziga yoki shifokorga murojaat qiling.
- P321 Maxsus davolash (yorliqda ko'rsatilgan).
- P405 Qulf ostida saqlang.
- P501 Mahsulot va idishni mahalliy, mintaqaviy, milliy va xalqaro qoidalarga muvofiq utilizatsiya qiling.

